

VOL 4. ISSUE 9



JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



zenodo


OpenAIRE | EXPLORE

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN:
3030-3311

VOLUME | 4 ISSUE | 9 | APRIL | 2026



JCWS

TAFAKKUR USLUBINING FALSAFIY-METODOLOGIK TAHLILI

¹ *Islom Xosilmurodov*
² *Gulnoz Akbo'tayeva.*

¹ O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali assistenti

² O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi


e-mail: gulnozakbotayeva@gmail.com

ANNOTATION:

Tafakkur inson ongining eng muhim faoliyat shakllaridan biri bo'lib, u borliqni anglash, tushunish va o'zgartirish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tafakkur uslubi esa insonning fikrlash tarzini, bilish metodlarini va dunyoni idrok etish yo'lini ifodalaydi. Zamonaviy falsafada tafakkur uslubini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, u ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

KEYWORDS:

Tafakkur, fikr, mulohaza, aqliy bilish, struktura, mohiyat, borliq, tabiat, jamiyat, mantiq, mentalitet.



April 25, 2026,

Published Date:

April 30, 2026

Journal Website:

<https://d-prensa.com/index.php/jcws/>



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

Kirish

Ma'lumki, odamlar qadimdan «uslub» tushunchasini san'at, adabiyot, arxitektura asarlari xususiyatini izohlash uchun ishlatganlar. Hozir esa, bu tushuncha keng ma'noda qo'llanilmoqda. Tafakkur uslubi, uning strukturasi va funksiyalari haqida to'xtalishdan avval tafakkurning o'zi nima ekanligini anglab olishimiz muhimdir.

Tafakkur uslubi — bu insonning voqelikni anglashda qo'llaydigan usullari, yondashuvlari va mantiqiy shakllarining majmui hisoblanadi. Har bir tarixiy davr, madaniyat va ilmiy muhit o'ziga xos tafakkur uslubini shakllantiradi. Masalan, qadimgi davrlarda mifologik tafakkur ustun bo'lgan bo'lsa, keyinchalik falsafiy va ilmiy tafakkur shakllari rivojlandi.

Tabiatning gultoji bo'lgan, jamiki tiriklik ichida faqatgina insonga eng buyuk ne'mat sifatida tafakkur berilgan. Bizningcha tafakkur insonning inson ekanligini tasdiqlovchi eng asosiy mezondir. Tafakkurning o'zi “arabcha so'z bo'lib fikrlash, aqliy bilish” degan ma'noni bildiradi. Ya'ni, fikrlash bilan tafakkur aynanlik xususiyatiga ega. Tafakkurning mohiyati, uning inson hayotidagi naqadar muhim ekanligi haqida mulohazalar qadimdan to bugungacha ham to'xtagani yo'q. Antik davr yunon faylasufi Platon “tafakkur yagona munosib tangadir, faqatgina ana shu tangaga hamma narsani almashish mumkin”[1] deb tafakkurni yuksak baholagan. Farobiy ham mantiq ilmi, tafakkur ilmi haqida fikr yuritir ekan, u shunday deydi: “Bizning maqsadimiz aqlni xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda, to'g'ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko'rsatadigan san'atni-mantiq san'atini o'rganishdir”[2]. Bizningcha ham tafakkur inson hayotining asosiy poydevoridir. Tafakkursiz inson

shunchaki inson qiyofasidagi odamning bir vakili bo'lib gavdalanadi. Tafakkurning inson hayotidagi ahamiyatini Prezident I.A.Karimovning “kuch-bilim va tafakkurda” degan fikrida ham yaqqol ko'rinadi. Darhaqiqat, kuch hamisha bilim va yuksak tafakkur sohiblarida bo'lgan buni tarix domimo isbotlab kelmoqda.

Asosiy qism

Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga suyanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Shunga ko'ra tafakkurda quyidagi asosiy xususiyatlar mavjud:

birinchidan, tafakkur hissiy bilishdan farqli o'laroq, voqelikni o'z aniq tabiatidan mavhumlashtiradi, uning muhim belgilarini nomuhimlaridan ajratib, umumlashgan obrazlar shaklida aks ettiradi. Masalan, huquqshunoslikda “davlat” tushunchasida, tafakkurda o'ziga xos alohida takrorlanmas belgilarga ega bo'lgan aniq bir davlatni emas, balki barcha davlatlarga xos bo'lgan umumiy va muhim belgilarni umumlashtirgan, majburlash vositasi va usullariga ega bo'lgan, jamiyatni boshqaruvchi siyosiy tashkilot sifatidagi mavhumlashgan obraz gavdalanadi;

ikkinchidan, tafakkur voqelikni faqatgina sezgilar orqali emas, balki muayyan tajriba va bilimlar orqali chuqurroq bilishdir. Masalan, inson biron-bir jinoyatni yoki qilmishni o'z ko'zi bilan kuzatmasdan turib, dalillar asosida u haqida xulosa chiqarishi mumkin;

uchinchidan, tafakkur inson aqlida hosil bo'lgan har qanday fikr faqat tilda moddiy ifodasini topishi mumkin;

to'rtinchidan, tafakkur voqelikni ijodiy va faol aks ettiruvchi jarayondir.

Demak, tafakkur – inson hayoti barhayotligi negizidir. Chunki, tafakkur orqali inson ijtimoiy hayotda o'ziga mos ravishda mavqe egallaydi.

Falsafada tafakkur uslubi turli yo'nalishlar orqali tahlil qilinadi:

- Dialektik tafakkur — borliqni doimiy o'zgarish va rivojlanishda ko'radi. Bu yondashuv qarama-qarshiliklar birligi va kurashiga asoslanadi.

- Metafizik tafakkur — hodisalarni o'zgarimas va alohida holda o'rganadi.

- Analitik tafakkur — murakkab hodisalarni qismlarga ajratib tahlil qiladi.

- Sintetik tafakkur — turli elementlarni birlashtirib, yaxlit tasavvur hosil qiladi.

Tafakkur uslubi ya'ni fikrlash san'atining o'ziga xosligi tarixi insonning ongli faoliyat yurita boshlagan davriga borib taqaladi. Zero, tafakkur uslubi inson faoliyatida biror-bir muammoni hal qilishda va haqiqatni anglashida o'zini namoyon qiladi. Shuning uchun ham tafakkur uslubining strukturasini, funksiyalarini bilish inson uchun eng dolzarb masaladir. Bizningcha, tafakkur uslubi bu hissiy va aqliy bilimga asoslangan, voqelikni vositali in'ikos ettirishdir.

Tafakkur uslubining metodologik tahlili quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Bilish usullari — induksiya, deduksiya, analogiya.

2. Mantiqiy shakllar — tushuncha, hukm, xulosa.

3. Ilmiy metodlar — kuzatish, tajriba, modellash.

Tafakkur uslubi aynan shu metodlar orqali o'z ifodasini topadi va insonning ilmiy hamda kundalik faoliyatida qo'llaniladi.

Xulosa

Zamonaviy davrda tafakkur uslubi yanada murakkablashib, integrativ xarakter kasb etmoqda. Fanlararo yondashuv, tizimli fikrlash va kreativ tafakkur bugungi kunning asosiy talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivoji inson tafakkur uslubiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tafakkur uslubi insonning dunyoni anglash darajasini belgilovchi muhim omildir. Uning falsafiy-metodologik tahlili orqali biz fikrlash jarayonining mohiyatini chuqurroq anlaymiz. Bu esa nafaqat ilmiy izlanishlar, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Jo'raeva. 96 mumtoz faylasuf. – T.:Yangi asr avlodi, 2011., 46-b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008, 8-b.
3. Islom X. Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi //Pedagog respublika ilmiy jurnali. – 2023. – T. 15.
4. Hasilmurodov I. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. – 2022.
5. Xamitolim o'g'li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi.“ //Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati”. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. – 2022.
6. Xamitolim o'g'li X. I. O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati //Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021.
7. Xamitolim o'g'li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi.“Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili”.“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil.
8. Islam H. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – C. 11.